

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ISMOILOVA ADOLAT ANVAROVNA**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AKMEOLOGIK MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Ismoilova Adolat Anvarovna**

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish  
metodikasini takomillashtirish..... 3

**Исмоилова Адолат Анваровна**

Совершенствование методики развития акмеологической культуры  
будущих учителей..... 19

**Ismoilova Adolat Anvarovna**

Improving the methodology of developing acmeological culture of future  
teachers..... 37

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 41

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ISMOILOVA ADOLAT ANVAROVNA**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AKMEOLOGIK MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Ped1552 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Muslimov Narzulla Alixanovich  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Panjiyev Qurbonniyoz Berdiyevich  
pedagogika fanlari doktori, professor

Ismoilova Zuxra Karabayevna  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_»- \_\_\_\_soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_da \_\_\_\_ - raqamli restr bayonnomasi).

B.S. Abdullayeva  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G. Ivanov  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent

Z.N. Alimtarajabova  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon ta'lim muassasalarida millat genofondini akmeologik qadriyatlar implementatsiyasida rivojlantirishning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030" dasturi asosida tahsil oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy yetuklikka erishish jarayonida pedagogik, psixologik qadriyatlar, akmeologik madaniyat darajasini oshirish, munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, variativ yondashuv asosida ijtimoiy faol munosabatga kirishishlariga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmokda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy muhitni yaratish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, akmemadaniy shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlarini fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashni ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda, xususan, "Oliy ta'lim muassasalarida gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish; ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish"<sup>1</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifalar talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish, kasbiy qobiliyatini rivojlantirish, kreativ salohiyatini oshirish mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son «2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmonlari hamda boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 ktyabrdagi PF-5847-s n "O'zbekiston Respublikasi liy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-s n; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-s n.

tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi, akmeologik madaniyatini rivojlantirish G.Boymurodova, M.Vahobov, YA.Ismadiyarov, M.Isabayeva, B.Ma’murov, M.Mirsoliyeva, N.Muslimov, Z.Soliyevlar ishlarida o‘rganilgan bo‘lsa, yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogrammaning ahamiyati va kasbiy ta’lim jarayoniga tayyorlashda akmeologik yondashuvni tatbiq etish masalalari A.Saliyev, G.Ernazarova tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidan A.A.Derkach, N.S.Tolstouxova, V.A.Bolotov, Yu.V.Vardanyan, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, L.M.Mitina, A.V.Xutorskoy, Z.V.Rumyanseva, T.V.Shelkunova, S.I.Pyatibratova Yu.V.Sinyagina, Ye.V.Seleznyova, A.S.Glinskiy, V.O.Ramonova, M.M.Shexterlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Akmeologik madaniyatga yo‘naltiruvchi motivatsiyali faoliyatni tashkil qilish texnologiyalarini takomillashtirish Albert Bandura, Boele de Raad, Drapeau Patti, Gregory K.Patton, K.Thomas, H.H Zullow, J.K. Khannalarning tatqiqotlarida yoritilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishni metodik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishning samaradorligini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyati rivojlanganligini metodik mazmunini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajribasinov ishlarida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika institutidan jami 764 nafar respondent ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik ilmiy manbalar, DTS, o'quv rejaları va dasturlarini tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), pedagogik kuzatish, sotsiometrik (test, suhbat, anketa, intervyu), pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ta'lim infratuzilmasini tashkil etuvchi komponentlar mazmuni bilan motivatsion-intellektual, hissiy-irodaviy, individual-refleksiv yo'naltirishning integrativ yaxlitligini ta'minlash hamda kasbiy-shaxsiy akmekompetentlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan individual muloqot maqbulligini qiyosiy tashxislash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi o'zini o'zini rivojlantirishning produktivligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik mikromuhitni yaratish hamda subyekt-subyekt munosabatlarida didaktik talab va ehtiyojni pragmatik natijadorlikning motivatsion komponentlariga izchil uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi o'zini o'zi rivojlantirish samaradorligi, pedagogik faoliyat funksiyalariga mos ravishda kasbiy faoliyatga tayyorlash, akmeologik ta'limning tarkibiy elementlari, o'zini o'zi faollashtirish, guruhda ishlash va individual harakat qilish uyg'unligi trayektoriyasini prognostik loyihalash hamda EduScrum metodini intensiv qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi o'zini o'zi rivojlantirishning metodik mazmuni kasbiy masalalarni yechishda passiv ishtirok etish, ayrim topshiriqlarni mustaqil bajarish hamda reproduktiv, produktiv, kreativ darajalarning miqdor va sifat omillarini shaxsiy sifatning proyektiv imkoniyatlariga identiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiya komponentlari (ijtimoiy, shaxsiy, axborotli, kommunikativ va refleksiv) majmuining pedagogik shart-sharoitlarini tizimlashtirishda yangicha yondashuv asosidagi integratsion ta'lim strategiyasi "Kasbiy kompetentlik" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan;

akmeologik madaniyatni rivojlantirishga imkon beruvchi o'quv jaryonini boshqarishning integrativ tuzilmasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik tahlillarga asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan modellar va akmeologik modellar tuzilmalari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirishga oid yangi metodologik yondashuv, g'oya, tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalaridan ta'lim samaradorligini oshirish va ijodiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha pedagogik turkum fanlar dasturlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, o'quv-tarbiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ta'lim infratuzilmasini tashkil etuvchi komponentlar mazmuni bilan motivatsion-intellektual, hissiy-irodaviy, individual-refleksiv yo'naltirishning integrativ yaxlitligini ta'minlash hamda kasbiy-shaxsiy akmekompetentlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan individual muloqot maqbulligini qiyosiy tashxislash asosida aniqlashtirishga oid takliflar «Kasbiy kompetentlik» nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2024-yil 26-sentyabrdagi 420-U son buyrug'i asosida berilgan 421-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilar akmeologik kompetentlik komponentlarning mohiyati kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashuviga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi o'zini o'zi rivojlantirishning produktivligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik mikromuhitni yaratish hamda subyekt-subyekt munosabatlarida didaktik talab va ehtiyojni pragmatik natijadorlikning motivatsion komponentlariga izchil uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar «Kasbiy kompetentlik» nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2024-yil 26-sentyabrdagi 420-U son buyrug'i asosida berilgan 421-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi o'zini o'zi rivojlantirish samaradorligi pedagogik faoliyat funksiyalariga mos ravishda kasbiy faoliyatga tayyorlash akmeologik ta'limning tarkibiy elementlarini o'zini o'zi faollashtirish, guruhda ishlash va individual harakat qilish uyg'unligi trayektoriyasini prognostik loyihalash hamda EduScrum metodini intensiv qo'llash asosida takomillashtirishga oid takliflar «Kasbiy kompetentlik» nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2024-yil 26-sentyabrdagi 420-U son buyrug'i asosida berilgan 421-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik komponentlarning mohiyati kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashuviga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi o'zini o'zi rivojlantirishning metodik mazmuni kasbiy masalalarni yechishda passiv ishtirok etish, ayrim topshiriqlarni mustaqil bajarish hamda reproduktiv, produktiv,

kreativ darajalarning miqdor va sifat omillarini shaxsiy sifatlarning proektiv imkoniyatlariga identiv moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar «Kasbiy kompetentlik» nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2024-yil 26- sentyabrdagi 420-U son buyrug‘i asosida berilgan 421-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishdagi hissiy-emotsional faoliyati kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va 10 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan va muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Shuningdek, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida oliy ta‘lim muassasalarida pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonini jadallashtirish, ta‘lim jarayonining samaradorligiga erishish, talabalarni kasbiy faolyatga tayyorlashning hozirgi holati, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish, talabalik davridagi akmeologik madaniyatini rivojlantirish muammolari kompleks o‘rganilgan, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik madaniyatni shakllantirish zarurligi nazariy jihatdan asoslangan. Talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvni qo‘llashning metodologik, ilmiy, tashkiliy, ijtimoiy, psixologik zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, talabalarni kasbiy tayyorgarlik faoliyatining har xil o‘quv, ilmiy, tarbiyaviy va metodistlik funksiyalarini kompleks birlashtirish natijasida akmeologik kompetentlik tarkibiy komponentlari aniqlangan. Intensiv kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda akmeologik madaniyatni tarkibiy komponentlari mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilgan malaka talablar asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida “Akmeologiya” tushunchasi ilmiy fenomen sifatida o‘rganilib, quyidagicha izohlandi: Akmeologiya (yunoncha: “akme” “yuksalish”, “cho‘qqi”; “logos” - ta‘limot) kamolot, yetuklik ma‘nolarini anglatadi. Akmeologiyaning ilmiy

muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananyev: “insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so‘nggi ontogenez davridagi uning ijodiy, samarali ijtimoiy-faol hayot fazasi sifatida akmeologiya bo‘lishi mumkin”, - deydi. Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g‘oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan g‘oyasi bo‘la olmaydi, degan nazariyalar ham yo‘q emas. Tadqiqot doirasida biz akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo‘lmog‘i lozim, - degan qat’iy konsepsiyaga asoslandik. Ma’lumki, “akme”da talabanning ta’limiy, tarbiyaviy, o‘quv-metodik va ilmiy ijodiy faoliyati bilan bog‘liq funksional vazifalarni amalga oshirish holatlari nazarda tutiladi.

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning “akme” kategoriyasi bilan bog‘liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, “akme” - bu qisqagina kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik davrini qamrab olsada, ko‘p qirrali holat bo‘lib, talabanning har doim jamoada qanchalik o‘z o‘rniga ega ekanligi, uning kasbiy pedagogik sohada mutaxassis sifatida olib borayotgan salmoqli pedagogik faoliyati, shaxs sifatida esa uning atrofida bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida ma’naviy qiyofasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir.


SHaxsning akmeologik sifatlarini rivojlantirish ijtimoiy buyurtma va davlat ta’lim standartlariga mos tarzda ta’limiy xizmatlar mahsuli sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda o‘qituvchi nufuzi va uning kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat bermoqda. Zero, ta’lim jarayoni uning har bir bosqichida yangilangan mohiyatni, innovasion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berishi taqozo qilinadi.

Ilmiy ishlanmalarda “akmeologiya” tushunchasiga berilgan barcha ta’riflarni umumlashtirib, akmeologiya, akmeologik madaniyat, tushunchalariga mualliflik ta’rifi berildi. Akmeologiya - shaxsning individual genezisidagi rivojlanishining oliy darajasi, kamolotini belgilovchi sifatlar majmuasi. Akmeologik madaniyat - talabanning kasbiy rivojlangani, kasbiga oid bilimlarni chuqur egallashi, uning jamiyat, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyati, kasb sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi, kasbiy kamolotidagi mukammallik bosqichi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo‘lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta’limotlarni to‘plash, tasnif qilish va uni o‘qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo‘ldi. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik bilim va tajribalar transformasiyasining mazmuni va mohiyati madaniy ma’naviy, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, ilmiy va pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish asosida yuqori kamolot cho‘qqisiga erishishga shart-sharait xozirlovchi qulay bosqich, kasbiy-shaxsiy akmekompetentlikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan individual muloqotlar maqbulligini qiyosiy tashxislash asosida aniqlandi. Tadqiqot

doirasida bo'lajak o'qituvchining akmeologik madaniyati tarkibiy komponentlari aniqlandi (1-rasmga qarang).

Bo'lajak o'qituvchining akmeologik madaniyati tarkibiy komponentlari mazmuni: motivasion sifat – kasbiy faoliyat maqsadini belgilay olishi, kasbiy-ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga intilish, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishi; intellektual sifatga ega bo'lish – muammoni ko'ra bilish, uni hal etish yo'llarini topa olish, ijodiy fikrlash, modellashtirish, loyihalash, bashoratlash hamda yangi g'oyalarni topa olishga moyillik; amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish – yangi, notanish vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qila olish, o'ziga xos yechimlarni topish, muloqot yo'nalishi hamda harakatlar yo'nalishini o'zgartira olishi, topqirlik, ziyraklik, oqillik, uddaburonlik, faollik; amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish – yangi, notanish vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qila olish, o'ziga xos yechimlarni topish, muloqot yo'nalishi hamda harakatlar yo'nalishini o'zgartira olishi, topqirlik, ziyraklik, oqillik, uddaburonlik, faollik; irodaviy sifatlarga ega bo'lish – kasbiy faoliyatni amalga oshirishda qat'iyatli bo'lish, maqsad yo'lida dadil harakat qila olishga bo'lgan vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarning yechimini topa olishi; hissiy sifatlarga egalik – o'quvchilarning o'y-kechinmalari, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlik, bolajonlik, ochiqlik, hissiyoti, harakatlari, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish; individual xislatlarga ega bo'lish – g'oyaviy-ijtimoiy bilimlarga egalik, jamiyatda kechayotgan o'zgarishlar mohiyatini to'g'ri anglay olish, milliy istiqloq g'oyasi asoslarini bilish, muayyan e'tiqod (ma'naviy-axloqiy, kasbiy e'tiqod)ga ega bo'lish; refleksiya (o'zini o'zi boshqara olish layoqatiga ega bo'lish – ijtimoiy munosabatlar hamda kasbiy faoliyat jarayonida atrofdagilarga o'rnak bo'la olish, har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilish, shaxs va mutaxassis sifatida o'zligini saqlay olishni o'z ichiga oladi).



**1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilar akmeologik madaniyatining tarkibiy komponentlari**

Dissertatsiyada bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyat shaxs tomonidan belgilangan maqsadlar va ularga erishganlik darajasining bog'likligi bilimlar, axborotlarni o'zaro almashish, tabiiy holatlarni bashorat qilish, ma'rifat tarqatish, taqdim etish imkoniyati hamda muntazam, ochiq, to'g'ridan-to'g'ri va teskari muloqot vaziyatidir deb izohlangan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida auditoriya mashg'ulotlarida ya'ni, nazariy va amaliy kasbiy ta'lim jarayonida akmeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, pedagogik jarayonning amalga oshirishning shakli, metodi va vositalari hamda talabalarda akmeologik madaniyatni rivojlantirishda “Pedagogik mahorat” fanini o'qitish metodikasi yoritilgan. Akmeologik madaniyatni rivojlantirishning funksional modeli, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari (kasbiy pedagogik qobiliyat, kasbiy pedagogik kompetentlik, kasbiy pedagogik faoliyatda akmeologik yo'nalganlik) darajalari tavsifi ishlab chiqilgan.

Akmetexnologiyalar, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida shaxsni kasbiy yo'naltirishda yuqori samaradorlikka erishish “Pedagogik mahorat” fani misolida tadqiq etilgan. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayoni uchun akmeologik muhit yaratish va talabalarga muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlashni akmeologik texnologiyalari, ya'ni nazariy va amaliy darslarda talabalarda akmeologik yondashuv asosida “Pedagogik mahorat” fanini o'zlashtirish darajasini aniqlovchi mezonlar o'quv jarayonida pedagogik-psixologik va akmeologik metodlardan kompleks foydalanish, akmetexnologiyalarni samarali qo'llash natijasida fanni to'lik o'zlashtirish, talabaning o'z kasbiy akmesiga erishishini ta'minlash yo'llari, talabalarda kreativlik, ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi akmetexnologiyalar yoritilgan. SHu bilan birga munozarali akmetexnologiya, ijodiy izlanishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari xamda pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda “Ustoz – shogird” tizimidan keng foydalanilgan.


Kasbiy pedagogik ta'limda akmeologik yondashuv asosida talabalarni auditoriya va auditoriyadan tashqari mag'ulotlarda, pedagogik amaliyot davrida o'quv-pedagogik faoliyatida shaxsiy va kasbiy sifatlarini, talim sifatini taminlash va uning talim samaradorligini ta'minlash, shuningdek, talabalar kasbiy kompetentligini, pedagogik faoliyatning ilg'or usullari va tajribalarini egallash hamda talabalar amaliy ishlarida va pedagogik amaliyot davomidagi mustaqilligini, texnikaviy madaniyatni, kasbiy kreativ qobiliyatni, kasbiy madaniyatni taminlash kabi kasbiy pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. SHu bilan birga, akmeologik madaniyatni mustaqil ta'lim va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarining pedagogika kasbiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini, kasbiy faoliyati davomida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan intilishlarini, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini kengaytirishga, shuningdek o'z mavqeini belgilash va qobiliyatlarini ruyobga chiqarish kabi xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda maqsadning qo'yilishi, rivojlantirish metodikasi o'zini-o'zini rivojlantirishning produktivligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik mikromuhitni yaratish hamda pedagogik faoliyat funksiyalari aniqlandi, tashkiliy metodologik asoslari (metodologik yondashuvlar, akmeologik madaniyatni rivojlantirishning bosqichlari), pedagogik jarayonni amalga oshirish mexanizmlari (didaktik shart-sharoitlari, akmeologik madaniyatning komponentalari mazmuni, jarayonni amalga oshirish shakllari, interfaol talim metodlari, zamonaviy vositalarni roli va o'rni xamda innovasion talim texnologiyalari xamda talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlanganini baxolash mezonlari va darajalarini aniqlashga qaratilgan faoliyatli modeli ishlab chiqilgan (2-rasmga qarang).

Modelda ko'rsatilgan bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish bosqichlarida amalga oshiriladigan har bir faoliyat natijasi aniq belgilanadi. Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabalarida akmeologik ko'nikmalar hosil qilingani ularning ifodalay oladigan bilim elementlari, aloqiy fazilatlarini, ma'naviy dunyoqarashidagi o'zgarishlar bilan tavsiflandi va ushbu mezonni baholash ko'rsatkichi sifatida talabalarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish asosida ularning o'zlashtirilgan bilim elementlari: davlat talim standartidagi ta'lim dasturlari mazmunidagi o'quv bilim elementlarini o'zlashtirilgani va o'zlashtirilgan bilimlarning tizimli amaliyotga joriy etishda va mustaqil ijodiy faoliyatida namoyon bo'ldi. Bu ko'rsatkich talabalar tomonidan bilimlar o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni tushunish hamda shu asosda umumlashtiruvchi o'quv topshiriqlarini bajara olishi bilan belgilandi. Bu mezon baholash ko'rsatkichi sifatida talabalar tomonidan bilimlar doirasidagi aniqlangan bog'liqlik va munosabatlar miqdorining o'quv materialida mavjud bo'lgan bog'liqlik va munosabatlar miqdorini belgiladi. O'zlashtirilgan bilimlarning qo'llay olishi ko'rsatkichi o'zlashtirilgan bilimlarning nostandart vaziyatlarda muammoli vazifalarni (o'quv topshiriqlari) mustaqil hal qilish darajasi bilan belgilandi. Bu mezon talabaning bergan nostandart javoblar sonining nazorat topshirig'ida talab qilingan miqdorga nisbatan belgilandi.

Umumta'lim maktablarida manaviy-marifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo'nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, o'quvchilar ta'limi va tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onalar bilan xamkorlikda ishlash metodikalarini joriy etilishi ("Kundalik daftar", "Ota-onalar bilan ishlash", elektron xujjatlarni rasmiylashtirish kabi va boshqa) talabalarning real maktab hayoti uchun zarur bo'lgan meyoriy normativ va o'quv-metodik hujjatlarni yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Dissertatsiyada bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat tashqi omillar tasirining natijasi, balki ichki omillar, ya'ni shaxs ongi, uning ichki mazmuni va shaxsiy tarkibi bilan bog'liqligi akmeologik madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan debat, seminar, metodik ishlarning imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va o'zini o'zi baholash parametrlari ishlab chiqish akmeologik ta'lim tarkibiy elementlarini o'zini o'zi faollashtirish, guruhda ishlash va individual harakat qilish uyg'unligi traektoriyasini prognostik loyihalash hamda EduScrum metodini intensiv qo'llash asosida takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari aniqlangan.



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishning funksional modeli

Dissertatsiyada bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat tashqi omillar tasirining natijasi, balki ichki omillar, ya’ni shaxs ongi, uning ichki mazmuni va shaxsiy tarkibi bilan bog‘liqligi akmeologik madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan debat, seminar, metodik ishlarning imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘zini o‘zi baholash parametrlarini ishlab chiqish akmeologik ta’lim tarkibiy elementlarini o‘zini o‘zi faollashtirish, guruhda ishlash va individual harakat qilish uyg‘unligi traektoriyasini prognostik loyihalash hamda EduScrum metodini intensiv qo‘llash asosida takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida akmeologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining mazmuni, tashkiliy-metodik tavsifi va pedagogik shart-sharoitlari hamda talabalarni akmeologik madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlari 3 ta oliy talim muassasasida uch bosqichda (o‘rganuvchi-tasdiqlovchi, tashkiliy-shakllantiruvchi va tajribaviy-umumlashtiruvchi) izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etilgan, shuningdek, turli bosqichlar natijalari alohida-alohida tahlil qilingan hamda o‘zaro solishtirish asosida aniq xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot davrida oliy talim muassasalari talabalarining akmeologik madaniyatini kasbiy yo‘nalganlik komponentlarini asosida rivojlantirish, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning adekvat metodlari, usullari va tashkiliy shakllarini qo‘llanishi hisobiga amalga oshirilgan. Bunda talabalar mazmundagi integrativ vazifalarni amalga oshirgan, o‘qituvchi talabalarni o‘zini o‘zi (refleksiya) rivojlantirishga, shaxsiy motivlarni anglashga va qayta tushunib olishga va umuman hayotiy maqsadlar, qiziqishlar, ehtiyojlar va kasbiy kreativ qobiliyatlar, kasbiy kompetentlik, shuningdek, talabalarni ongli refleksiya va maqsadga intilish, kasbiy pedagogik muammolarni ijodiy hal etish usullariga, shaxsiy rivojlanishni rejalashtirishga va kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish tartibida ishlashga etibor qaratilgan.

Talabalarining akmeologik madaniyatni rivojlantirishda oliy talim muassasalarida talimiy, tarbiyaviy, o‘quv-metodik va ilmiy faoliyatda yuqori kasbiy natijalarga erishish uchun kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, intellektual qobiliyatni rivojlantirish, amaliy faoliyatda kasbiy kompetentlikni shakllantirish, kasbiy akmeoyo‘nalganlikka, faoliyatda yuqori muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanishni ta’minlash, tajriba-sinov bosqichlari bo‘yicha oliy talim muassasalari talabalarining shaxsiy va kasbiy sifatlari komponentlari shakllanishining o‘zgarish darajasi dinamikasi tajriba va nazorat guruhlarida maxsus ishlab chiqilgan mezonlar va ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlangan, matematik-statistik ishlov berilgan.

Tajriba aniqlovchi (2020-2021), ta’kidlovchi (2021-2022), shakllantiruvchi, yakunlovchi tajriba-sinov (2022-2023) bosqichlarida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 764 nafar respondent ishtirok etib, ulardan, Toshkent davlat pedagogika universitetidan 322 nafar talaba, Jizzax davlat universitetidan 224 nafar talaba, Qo‘qon davlat universitetidan 218 nafar talaba ishtirok etgan.

Tajriba-sinovi davrida OTMLar o‘quv jarayoniga kiritilgan asosiy o‘zgartirish-bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan funktsional model mazmunining tarkibiy elementlari, mexanizmlari, baxolash mezonlar auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar (mustaqil talim va pedagogik amaliyot) mazmuniga singdirildi. Shuningdek, innovasion ta‘lim texnologiyalari, interfaol metodlar, zamonaviy talim vositalarning qo‘llanishi bilan tavsiflandi. Tajriba guruhida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda innovasion talim shaxsga yo‘naltirilgan akmetexnologiyalari va interfaol metodlar sifatida: “Rezyume”, “EduScrum”, “Bumerang”, “Portfolio”, “SWOT” tahlil va manaviy-marifiy faoliyatni amalga oshirishda: Ishontirish, Rag‘bat, Stimul, Xulqni idora qilish kabi metodlardan foydalanildi. Shu bilan birgalikda shuningdek, 4-bosqich talabalariga mo‘ljallangan “Akmeologik madaniyat” testi (Vishnyakova N.F.), talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlanganini aniqlash bo‘yicha so‘rovnoma (mualliflik ishlanma) diagnostik metodikasi qo‘llangan. Ushbu pedagogik diagnostikaga asoslangan metodika bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatning rivojlanganlik darajasini tahlil qilish va baholash uchun tatbiq etildi. Olingan natijalardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatning rivojlanganlik darajasi aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlanganini baholash ko‘rsatkichlari sifatida kasbiy pedagogik faoliyat, kasbiy pedagogik kompetentlik, kasbiy pedagogik faoliyatda akmeologik madaniyat mezonlari aniqlandi. Baholash darajalari kreativ (yuqori), produktiv (o‘rta), reproduktiv (past) etib belgilangan.

Ularni kasbiy pedagogik kompetensiyalarini samaradorligini yuqori ekanligi aniqlandi. Baholash mezoni birdan kattaligi va pedagogik faoliyatga oid bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Demak, tajriba guruhlarining sifat ko‘rsatkichi nazorat guruhlaridagidan yuqori (1-jadval).

### 1-jadval

#### Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlanganlik darajasi samaradorlik ko‘rsatkichlari

O‘tkazish vaqti	Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish darajalari sonda		
			yuqori	O‘rta	Past
Tajribadan oldin	Tajriba guruhi	367	103	139	125
	Nazorat guruhi	397	112	147	138
Tajribadan keyin	Tajriba guruhi	367	172	158	37
	Nazorat guruhi	397	128	151	118

Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov yillari davomida amalga oshirilgan tizimli metodikalar samaradorligining taminlangani matematik statistika metodlari vositasida isbotlab berildi, natijalari


taqqoslandi. Bu tadqiqot konsepsiyasining asosliliigi, uning pedagogik tizim negizlari va nazariy jihatlariga ko'ra haqqoniy ekanini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlanganlik darajasi samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etildi. Tajriba-sinovda jami 739 nafar talabalar qatnashib, shundan talabalar tajriba guruhida 367 nafarni va nazorat guruhida 372 nafarni tashkil etdi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to'plam berilgan bo'lsin. Biri tajriba guruhidagi talabalar bilimining o'rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat guruhidagi talabalar bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rindir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo'lib, ular bajariladi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarda tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan talabalarning o'rtacha o'zlashtirishi – 13% ga oshgan.

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammalar quyidagicha ko'rinishni oladi:



### 3-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish samaradorligi

Demak, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlanganlik darajasi samaradorligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

## XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar samarasi sifatida quyidagi konseptual va ilmiy-amaliy xulosalarga kelingan:

1. Mamlakatimizda yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, sohadagi qator bakalavriyat yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish, pedagogik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmun-mohiyatini zamonaviy

talablar bilan uyg'unlashtirish umumpedagogik, didaktik hamda metodik xususiyatlarga ega bo'lgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekani aniqlangan.

2. Pedagogik kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, har bir shaxsning akmeologik madaniyatini rivojlantirish zamonaviy malaka talablarini bajarish: kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda motivatsion, intellektual, amaliy, hissiy, irodaviy va refleksiv tarkibiy komponentlar mazmunida o'z ifodasini topgan.

3. Oliy talim muassasalari pedagogika ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan o'quv fanlarining ta'limiy, tarbiyaviy, o'quv-metodik va ilmiy-tadqiqot funksional vazifalariga mos ravishda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash, akmeologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, ta'limiy, texnologik va tashkiliy shakllari (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar hamda pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish) samaradorligini oshirish metodikalari takomillashtirilgan.

4. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish jarayonida ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan model innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni qamrab olishi va bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lishi tadqiqotlar natijasida aniqlandi. Shuningdek, kelajakda kasbiy pedagogik faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsion, intellektual, amaliy, o'zini o'zi rivojlantirishning bosqichma-bosqich shakllanishi aniqlangan.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda akmeologik muhit yaratish, o'quv-bilish kompetensiyalarini akmeologik kasbiy yo'naltirish metodlari bo'lajak o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish dasturi orqali individual kasbiy shakllanish samaradorligi aniqlangan.

6. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tashkil qilingan tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili o'quv jarayonida va malakaviy amaliyotda akmeologik madaniyatni rivojlantirish samarador ekanini ko'rsatdi. Olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining samarali bo'lgani, tajriba-sinov ishlarining to'g'ri qo'yilgani, shuningdek, tadqiqotni to'g'ri amalga oshirilganidan dalolat beradi.

## **TAVSIYALAR**

1. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini mustaqil ijodkorlikka bosqichma-bosqich yo'naltirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlash.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini shaxsiy individual topshiriqlar asosida rivojlantirish.

3. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda pedagogik amaliyotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini takomillashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.01. 2020.Ped.26.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ИСМОИЛОВА АДОЛАТ АНВАРОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ  
АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (педагогика)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за №В2020.2.PhD/Ped1552.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdpu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Муслимов Нарзулла Алиханович  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Панжиев Курбонийёз Бердиевич  
доктор педагогических наук, профессор


Исмоилова Зухра Карабаевна  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:** Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 при Ташкентском государственном педагогическом университете (адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор. дом 27. Тел.: (99871) 276-82-32; факс: (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор. дом 27. Тел.: (99871) 276-75-87; факс: (99871) 276-76-51.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).



**Е.С.Абдуллаева**  
председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.п.н., профессор

**П.Исянов**  
член-корреспондент Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.п.н., доцент

**З.И.Мамаражабова**  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировых образовательных учреждениях внедряются креативные модели развития генофонда нации в имплементации акмеологических ценностей. В рамках Программы ООН «Цели устойчивого развития – 2030» проводится практическая работа, направленная на подготовку обучающихся к профессиональной деятельности, повышение уровня педагогических, психологических ценностей, акмеологической культуры в процессе достижения профессиональной зрелости, формирование навыков сотрудничества, основанных на отношениях, содействия социально активным отношениям на основе вариативного подхода.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях ведутся исследования по развитию профессионально-педагогической подготовки будущих учителей путем создания научной среды, совершенствованию процессов подготовки высококвалифицированных педагогических кадров в условиях цифрового образования. Вместе с тем, особое внимание обращается научным исследованиям, направленным на совершенствование профессионально-педагогической подготовки будущих учителей, развитие у них акмекультуры личности.

В нашей республике в последние годы создаются нормативные основы обеспечения интеграции процессов подготовки будущих учителей с приоритетными направлениями развития науки и технологий. В частности, в качестве приоритетных определены задачи: усиление внимания к качеству подготовки кадров по гуманитарным и педагогическим направлениям в высших образовательных учреждениях; повышение действенности духовно-просветительской и воспитательной работы<sup>2</sup>. Одним из путей успешной реализации данных задач является формирование профессиональной компетентности личности, развитие профессионального потенциала на основе разработки и внедрения в практику методик развития акмеологической культуры студентов, совершенствование содержания и технологий повышения творческого потенциала.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, обозначенных в указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, №УП-5544 «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы» от 21 сентября 2018, также в других нормативно-правовых документах, связанных с данной сферой деятельности.

---

<sup>2</sup>Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № ПФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года // Национальная база правовых документов, 09.10.2019 , 19.06 №/5847/3887; 30.04.2020, №20.06.5987/0521.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. “Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

**Степень изученности проблемы.** Вопросы развития профессиональной компетентности, акмеологической культуры педагогических кадров в системе образования изучены в работах ученых нашей республики таких, как Г.Боймуродова, М.Вахобов, Я.Исмадияров, М.Исабаева, Б.Мамуров, М.Мирсалиева, Н.Муслимов, З.Солиева и др.; проблемы развития качеств будущих специалистов, связанные с базовыми компетенциями изучали А.Салиев, Г.Эрназарова и др.

В странах Содружества Независимых Государств проблемы определения целей акмедеятельности в общем развитии личности, уровни формирования компетентности и компетенций, общее и психолого-педагогическое значение акмеологического подхода нашли свое отражение в исследованиях, таких как А.А.Деркач, Н.С.Толстоухова, В.А.Болотов, Ю.В.Варданян, И.А.Зимняя, Н.В.Кузьмина, Л.М.Митина, А.В.Хуторской, З.В.Румянцева, Т.В.Шелкунова, С.И.Пятибратова, Ю.В.Синягина, Е.В.Селезнева, А.С.Глинский, В.О.Рамонова, М.М.Шехтер и др.

